Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

QATAG‘ON QURBONLARI MEROSINI O‘RGANISHNING TARIXIY-MA’NAVIY AHAMIYATI

Maxpuzaxon Axmedbekova Kaxarovna*
Farg‘ona davlat universiteti “Tasviriy san’at” kafedrasi katta o‘qituvchisi
✉ maxfuza1102@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qatag‘on qurbonlari merosini o‘rganish, tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni asrash, ilmiy, adabiy, ma’rifiy va jamoat faoliyati, tarixiy manbalar asosida yoritish, arxiv hujjatlari, biografik materiallar, ilmiy tadqiqotlar, xotiralar, davriy nashrlarning tarixiy jarayonlarni anglashdagi ahamiyati, yosh avlodda tarixiy tafakkur, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, inson qadr-qimmati, muzey pedagogikasi, Abdulla Qodieiy merosi, manbalar, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, ta’lim jarayoni, metodik imkoniyatlar, tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy merosning avlodlararo davomiyligini ta’minlash, yoshlarning tarixiy jarayonlarga ilmiy-tahliliy munosabatini rivojlantirish va boshqalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar

qatag‘on qurbonlari, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, ma’naviy meros, tarixiy tafakkur, milliy meros, tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, yoshlar tarbiyasi, ta’lim jarayoni.

DOI: 10.5281/zenodo.23279548

KIRISH

Qatag‘on qurbonlari xotirasini asrab-avaylash xalqning tarixiy tafakkuri, milliy o‘zligini anglash va ma’naviy merosini avloddan avlodga yetkazish jarayonining muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biridir. XX asrning turli davrlarida siyosiy tazyiq, ta’qib, qamoq, surgun va qatl kabi repressiv amaliyotlarga duchor bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish milliy tarixning murakkab sahifalarini ilmiy asosda anglash imkonini beradi. Qatag‘onlar tarixi xalq boshidan kechirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi oqibatlarini, milliy tafakkur hamda ma’rifat rivojiga yetkazilgan zararni tadqiq etish uchun muhim tarixiy manba hisoblanadi

Tarixiy xotira tushunchasi mazkur jarayonda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tarixiy xotira jamiyatning o‘z o‘tmishini anglash, tarixiy voqealarni baholash, ajdodlar tajribasini saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish mexanizmlarini qamrab oladi. Qatag‘on qurbonlari haqidagi xotirani tiklash orqali tarixning ilgari yetarlicha o‘rganilmagan yoki siyosiy sabablar bilan cheklangan sahifalari qayta tadqiq etiladi. Arxiv hujjatlari, sud materiallari, tergov bayonnomalari, shaxsiy maktublar, xotiralar, ilmiy tadqiqotlar va davriy nashrlarni o‘rganish tarixiy haqiqatni manbalar asosida tiklash imkonini kengaytiradi.

Tarixiy xotiraning mustahkamligi jamiyatning o‘zligini anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. O‘zlikni anglash insonning o‘z xalqining tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari va ma’naviy merosi bilan bog‘liqligini tushunishidan boshlanadi. Qatag‘on qurbonlarining hayoti va ijodini o‘rganish yosh avlodda tarixiy jarayonlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Ayniqsa, ilm-ma’rifat, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy madaniyatni asrash va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish kabi qadriyatlarning tarixiy ildizlarini anglash shaxsning ma’naviy dunyosini boyitadi.

Qatag‘on qurbonlari merosini o‘rganish tarixiy xotirani shakllantirish bilan bir qatorda, milliy merosning mazmunini chuqur anglashga zamin yaratadi. Ularning ilmiy, adabiy, ma’rifiy, siyosiy va madaniy

faoliyati xalqning intellektual salohiyati, ma’rifatparvarlik an’analari va milliy taraqqiyot g‘oyalarining muhim ko‘rinishlarini aks ettiradi. Shu sababli qatag‘on qurbonlari merosini tarixiy shaxslarning biografik ma’lumotlari doirasida emas, balki muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’rifiy jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikda tadqiq etish ilmiy jihatdan muhimdir.

Qatag‘on qurbonlarining ilmiy va ijodiy merosi milliy madaniyat taraqqiyotining uzviy qismini tashkil etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi siymolarning faoliyati ma’rifat, ta’lim, adabiyot, matbuot va milliy tafakkur rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Ularning asarlarini tarixiy sharoit bilan bog‘lab o‘rganish o‘sha davr jamiyatidagi ma’naviy ehtiyojlar, ta’limiy qarashlar, milliy madaniyat va ijtimoiy tafakkur rivojining xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Jumladan, Abdulla Qodiriy misolida qatag‘on qurbonlari merosini o‘rganishning tarixiy-ma’naviy ahamiyati ikki yo‘nalishda ko‘rishimiz mumkin. Birinchidan, adibning hayoti qatag‘on siyosatining muayyan inson taqdiriga ta’sirini tarixiy hujjatlar asosida o‘rganish imkonini beradi. Ikkinchidan, uning adabiy merosi qatag‘on yillarida uzilgan yoki cheklangan milliy adabiy-ma’rifiy an’analarni tiklash jarayonini anglashga yordam beradi. Qodiriy asarlarining keyingi davrda qayta nashr etilishi va keng o‘rganilishi uning merosining tarixiy-madaniy ahamiyatini yana bir bor namoyon etadi. Shu jihatdan Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganish “shaxs – tarixiy muhit – qatag‘on siyosati – milliy meros – tarixiy xotira” uzviyligi asosida tashkil etilishi mumkin.

Talabalar Qodiriyning tarjimai holini yodlash bilan cheklanmasdan, uning asarlari yaratilgan tarixiy sharoitni, 1926-yilgi sud jarayonini, 1937–1938-yillardagi ta’qiblarni va keyingi oqlanish jarayonini manbalar asosida tahlil qilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv tarixiy voqeani inson taqdiri bilan bog‘lash, manbaning ishonchliligini tekshirish va mustaqil tarixiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.\

Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini ham shu nuqtai nazardan o‘rganish mumkin: asarning tarixiy mavzusi, milliy tafakkur masalalari va muallifning tarixga murojaat qilish sabablari tahlil qilinadi. Asarning muqaddimasida Qodiriy mavzuni “yaqin o‘tgan kunlar” va tarixning og‘ir davrlaridan olganini izohlaydi. Bu holat adib ijodida tarixiy xotira masalasi muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadigan adabiy dalillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy merosi qatag‘on qurbonlarini tarixiy xotira, milliy o‘zlik va milliy meros bilan bog‘liq holda o‘rganish orqali uning hayoti qatag‘on siyosatining inson taqdiridagi oqibatlarini, ijodiy merosi esa milliy adabiyot va ma’naviy tafakkurning tarixiy davomiyligini tadqiq etish imkonini beradi.

Bugungi raqamli ta’lim muhitida qatag‘on qurbonlari merosini o‘rganishning yangi imkoniyatlari shakllanmoqda. Raqamli arxivlar, elektron kutubxonalar, muzeylarning virtual ekspozitsiyalari, tarixiy hujjatlarning elektron nusxalari va multimedia materiallari tarixiy manbalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirmoqda. Bunday resurslardan foydalanishda axborot manbasining kelib chiqishi, muallifligi, ilmiy maqomi va daliliy asoslarini tekshirish muhim metodik talab sifatida qaraladi. Bu jarayon talabalarda raqamli tarixiy savodxonlikni rivojlantirib, turli manbalardagi ma’lumotlarni qiyoslash va asoslangan xulosa chiqarish imkonini kuchaytiradi.

Qatag‘on qurbonlari tarixini o‘rganishda muzey pedagogikasi ham samarali ta’limiy vositalardan biri hisoblanadi. Muzey eksponatlari, hujjatlar, fotosuratlar, shaxsiy buyumlar va memorial obyektlar tarixiy voqealarni aniq tasavvur qilishga yordam beradi. Muzeyga tashrifni oldindan tayyorlangan tadqiqot topshiriqlari, manba tahlili va refleksiv muhokama bilan bog‘lash talabalarning tarixiy tafakkurini faollashtiradi. Virtual muzeylar va raqamli ko‘rgazmalar esa geografik imkoniyatlardan qat’i nazar tarixiy meros bilan tanishish uchun qo‘shimcha sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдурасулов А. Қатағон қурбонлари хотираси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

2. Раимов Р. Қатағон қурбонлари. — Тошкент: Шарқ, 2001.

3. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари: 1937 йилда қамалган ва отилганлар. — Тошкент: Шарқ, 2001.